

BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ramazonov Akmal Samadovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi dotsenti

Rahmonov Mironshoh Qahramon o'g'li

2-kurs tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17431159>

Budjet tashkilotlarida ichki audit tizimini samarali tashkil etish va o'tkazish davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik, hisobdorlik va moliyaviy intizomni mustahkamlashning eng muhim vositalaridan biridir. Ichki auditning asosiy vazifasi moliyaviy va resurslardan foydalanish jarayonlarini nazorat qilish, ularning qonunchilik va belgilangan me'yorlarga muvofiqligini tekshirish, faoliyatning samaradorligini baholash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Davlat budjeti mablag'larining asosiy foydalanuvchilari hisoblangan budjet tashkilotlari faoliyati bevosita ijtimoiy sohalarga xizmat qilganligi sababli, bu mablag'lardan oqilona va maqsadli foydalanish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikka ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ichki audit tizimi davlat boshqaruvida strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda ichki audit faoliyati "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, "Davlat moliyaviy nazorati to'g'risida"gi Qonun va boshqa ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bu hujjatlar ichki auditning maqsad va vazifalarini, auditorlarning huquq va majburiyatlarini, hamda audit jarayonida qo'llaniladigan metodologiyani belgilaydi. So'nggi yillarda ichki audit tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, auditorlar malakasini oshirish bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyotda bu tizimda yechimini kutayotgan bir qator masalalar saqlanib qolmoqda.

Ichki auditning samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar qatoriga mustaqillik, malakali kadrlar, zamonaviy texnologiyalar, riskga asoslangan yondashuv, huquqiy bazaning to'liqligi, tavsiyalarni bajarish mexanizmlari, ochiqlik va hisobdorlik hamda motivatsiya va javobgarlik tizimlari kiradi. Mustaqillik ichki audit xizmati faoliyatida xolislik va obyektivlikni ta'minlaydi. Malakali kadrlar esa audit jarayonida aniqlik, ishonchlik va sifat kafolatidir. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, elektron hujjat aylanish tizimlari, ma'lumot tahlili dasturlari, avtomatlashtirilgan risk baholash platformalari auditning tezkor va samarali o'tishini ta'minlaydi. Riskga asoslangan yondashuv esa resurslarni eng xavfli jarayonlarga yo'naltirish orqali vaqt va mablag'ni tejaydi. Huquqiy bazaning puxta bo'lishi ichki audit faoliyatining qonunchilik kafolatlarini mustahkamlaydi, tavsiyalarni bajarish mexanizmlarining mavjudligi esa audit natijalarining amaliy samarasini oshiradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, budjet tashkilotlarida ichki audit faoliyati ko'p hollarda faqat yillik hisobotlar asosida o'tkaziladi, bu esa jarayonni reaktiv holatga olib keladi. Xalqaro tajribada esa "continuous auditing" – uzluksiz audit modeli keng qo'llaniladi, bunda tekshiruvlar doimiy ravishda, jarayon davomida amalga oshiriladi. Bu model yordamida muammolar ularning oqibatlari yuzaga chiqmasdan oldin aniqlanadi va bartaraf etiladi. Shuningdek, "value-added auditing" yondashuvi ham muhim bo'lib, ichki auditni faqat nazorat vositasi emas, balki tashkilot faoliyatiga qo'shimcha qiymat beruvchi strategik xizmat sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Ichki audit tizimida kadrlar salohiyati masalasi ham dolzarbdir. Auditorlar nafaqat buxgalteriya va moliya bo'yicha bilimga ega bo'lishlari, balki menejment, huquq, axborot texnologiyalari, xavflarni boshqarish sohalarida ham yetarli tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim. Xalqaro sertifikatli dasturlari (CIA, ACCA va boshqalar) auditorlarning malakasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, xorijiy tajriba almashish dasturlari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va qo'shma treninglar ichki audit sifati va samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Ichki auditning samaradorligini oshirishda raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish ham zarur. Axborot texnologiyalari orqali real vaqt rejimida ma'lumot yig'ish va tahlil qilish imkoniyati audit jarayonining tezligini oshiradi, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi va nazoratni kuchaytiradi. Data analytics va "Big Data" texnologiyalari yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, noodatiy operatsiyalarni aniqlash va xavf darajasini baholash mumkin. Bu esa auditni nafaqat hisobot davrida, balki faoliyatning istalgan bosqichida amalga oshirish imkonini beradi.

Ichki audit tizimini takomillashtirishda yana bir muhim jihat — audit xulosalari va tavsiyalarining bajarilishini majburiy nazorat qilish tizimini yaratishdir. Ko'plab hollarda audit tavsiyalari hujjatlarda qolib ketadi va amalda bajarilmaydi, bu esa auditning haqiqiy samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli tavsiyalarni bajarish jarayonini tizimli monitoring qilish, bajarilmagan hollarda esa javobgarlik choralari qo'llash zarur. Bunday mexanizm auditor xulosalarining amaliy qiymatini sezilarli darajada oshiradi.

Bundan tashqari, audit faoliyatida ochiqlik va jamoatchilikka hisobdorlikni kuchaytirish ham dolzarb masala hisoblanadi. Audit natijalarini yillik hisobotlar shaklida e'lon qilish, ular bo'yicha tashkilot rahbariyatining pozitsiyasini ham taqdim etish shaffoflikni oshiradi va fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Xalqaro amaliyotda bunday yondashuv "public disclosure" tamoyili deb yuritiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, budget tashkilotlarida ichki auditni tashkil etish va o'tkazishni takomillashtirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu yondashuv huquqiy bazani mustahkamlash, malakali kadrlar tayyorlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, riskga asoslangan audit modeliga o'tish, tavsiyalarni bajarish monitoringini kuchaytirish, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish, hamda ichki auditni strategik boshqaruv vositasiga aylantirishdan iborat bo'lishi lozim. Shu tarzda ichki audit tizimi nafaqat moliyaviy intizomni ta'minlaydi, balki davlat sektorida samaradorlikni oshirish, korrupsiya xavfini kamaytirish va davlat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashga bevosita xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, 2016-yil 13-aprel, O'RQ-404-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.08.2021-yildagi "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6300 sonli farmoni
3. 28.01.2022-yildagi "2022—2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 280-sonli qarori

05.05.2021-yil

5. **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining** "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori, 2022-yil 01-avgust, 416-son.
6. Ostonokulov A.A. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. – T.:TMI, 2021. –72 b.
7. А.В.Вершинина,Е.Р.Орлова Стратегия цифровизации и реальная Российская экономика ЭНСР № 4 (95) 2021
8. Ramazonov A.S. Accounting and Control of Extra-Budgetary Funds in Budgetary Organizations. Spanish Journal of Innovation and Integrity | ISSN 2792-8268 | Volume-25 | Dec -2023 pp-26-29
9. <https://lex.uz>
10. <https://imv.uz>